
Aholi va quruvchilar uchun yangi yengillik va imkoniyatlar yaratiladi

Jumladan, ipoteka krediti va subsidiya bilan ko'proq aholi qamrab olinadi:

- 1 maydan boshlab rasmiy daromadi yetarli bo'lmagan aholiga ham ipoteka krediti olish imkoni yaratiladi. Bunda ularning to'lov qobiliyatini aniqlashda bank kartasidagi aylanma, ijara, kommunal va boshqa xarajatlarga to'langan pullari ham hisobga olinadi;

- dastlabki badalni ko'proq to'lagan fuqarolar bankdan arzonroq kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- subsidiyaga ajratilgan mablag'larni tezroq ishlatish uchun subsidiya xabarnomasining amal qilish muddati 12 oydan 4 oyga tushiriladi. Ya'ni, bu muddat qisqartirilishi orqali subsidiyadan ko'proq aholi foydalanishi uchun imkoniyat yaratilayapti.

Shu bilan birga, 4 oy davomida sertifikatidan foydalanmagan fuqarolarga subsidiya olish uchun yana qayta murojaat qilish huquqi beriladi.

2023-04-10 11:29:25